

BOBURNING “BOBURNOMA”SIDA HARBIY YURISHLAR, STRATEGIK BOSHQARUV VA LASHKAR TASHKILYOTI, O‘G‘ILLARIGA NASIHAT.

Sobirboyeva Madina Baxtiyor qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi

3-kurs 23.86-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Boburning “Boburnoma” asaridagi harbiy yurishlar, lashkar tashkiliyoti va boshqaruv faoliyatiga bag‘ishlangan. Matn parchasida Bobur o‘z harbiy yurishlarini, o‘zbek va turkman qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglarni, qarorlar qabul qilish jarayonini, elchilar va vakillar orqali diplomatik aloqalarni, shuningdek, hududiy boshqaruv va imorat, bog‘ va inshootlarni barpo etish ishlarini batafsil bayon qiladi. Asar orqali o‘sha davrda harbiy strategiya, lashkarni joylashtirish, resurslarni taqsimlash, huquqiy va moliyaviy boshqaruv kabi masalalar hamda Boburning shaxsiy boshqaruv uslubi va diplomatik faoliyati haqida ma‘lumot olish mumkin. Annotatsiya asar parchasidagi voqealar va harbiy, diplomatik hamda ma‘muriy faoliyatni ilmiy tahlil qilishga imkon beradi.

Abstract: This article is devoted to the military campaigns, army organization and administrative activities in Babur's work "Boburnoma". In the text fragment, Babur describes in detail his military campaigns, battles with Uzbek and Turkmen troops, the decision-making process, diplomatic relations through ambassadors and representatives, as well as territorial administration and the construction of buildings, gardens and structures. Through the work, one can obtain information about such issues as military strategy, army deployment, resource distribution, legal and financial management of that period, as well as Babur's personal management style and diplomatic activities. The annotation allows for a scientific analysis of the events and military, diplomatic and administrative activities in the fragment.

Аннотация: Статья посвящена военным походам, организации армии и административной деятельности в произведении Бабура “Бобур-наме”. В тексте фрагмента Бабур подробно описывает свои военные походы, сражения с узбекскими и туркменскими войсками, процесс принятия решений, дипломатические отношения через послов и представителей, а также территориальное управление и строительство зданий, садов и сооружений. В произведении можно получить информацию по таким вопросам, как военная стратегия, дислокация армии, распределение ресурсов, правовое и финансовое управление того периода, а также личный стиль управления и дипломатическая деятельность Бабура. Аннотация позволяет провести научный анализ событий и военной, дипломатической и административной деятельности, представленных в фрагменте.

Kalit soʻzlar: Boburnoma, Bobur, harbiy yurish, lashkar tashkiloti, diplomatik aloqalar, hududiy boshqaruv, qarorlar qabul qilish, imorat qurilishi, bogʻlar va xiyobonlar, resurslarni taqsimlash, kema va suv yoʻllar, ustod va amaldorlar, askarlar va elchilar, tarixiy voqealar

Keywords: Baburnama, Babur, military campaign, army organization, diplomatic relations, territorial administration, decision-making, building construction, parks and avenues, resource distribution, ships and waterways, masters and officials, soldiers and ambassadors, historical events

Ключевые слова: Бобур-Наме, Бобур, военная кампания, организация армии, дипломатические отношения, территориальное управление, принятие решений, строительство зданий, парки и проспекты, распределение ресурсов, корабли и водные пути, хозяева и чиновники, солдаты и послы, исторические события

Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; oʻzbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski oʻzbek (chigʻatoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). „Boburiya“, „Voqeoti Bobur“, „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“,

„Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“ kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa „Vaqoye“ va „Tarix“ degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilmayil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Boburnoma – bu nafaqat shaxsiy kundalik, balki o‘sha davr siyosiy, harbiy va ma’muriy hayotini yorituvchi muhim manbadir. Maqola Bobur hayotining muhim bir davrini, xususan, harbiy yurishlar, hududiy boshqaruv, diplomatik aloqalar va ijtimoiy tartibni tashkil etish jarayonlarini aks ettiradi. Mazkur maqola asarda yoritilgan voqealarni tahlil qilgan holda, o‘sha davr harbiy, siyosiy va ijtimoiy hayoti bilan tanishtirishni maqsad qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi Humoyunga yozgan maktublari muhim ahamiyatga ega. Maktublaridan birida Bobur o‘z o‘g‘li Humoyunga nasihat, tabrik va siyosiy ko‘rsatmalar beradi. Bobur o‘g‘li Humoyunga maktub yozib, avvalo uning o‘g‘li — Al’amon tug‘ilganidan xursand bo‘ladi va unga tabrik bildiradi. U quyidagicha duolar qiladi: *“Tangri taolo bu kabi sevinchlarni menga ham, senga ham nasib etsin. Farzandingning ismini Al’amon qo‘yibsiz, muborak bo‘lsin.”* Ammo Bobur ism tanlashdagi e’tiborni ham ta’kidlaydi: *“Bu ismni xalq noto‘g‘ri talaffuz qilishi mumkin — “Alaamo” yoki “El Amon” deb. Shunday bo‘lsa ham, Tangri bu ismni muborak qilsin, farzanding uzoq umrli, saodatli bo‘lsin.”*

Xatlarda Bobur siyosiy va harbiy voqealar haqida ham bayon qiladi. Bobur o‘sha paytda Eron va Movarounnahrda bo‘layotgan siyosiy holatlardan xabar beradi: Balxda Qo‘rbong‘a (yoki Qurbonbek) degan kishini xalq shahar ichiga kiritganini, Kamron Mirzoga esa Bobur tomonidan farmon yuborilganini aytadi, unga va Kobul hokimlariga Humoyun bilan birlashish, zarurat bo‘lsa Hisor yoki Samarqand tomon yurish buyuriladi.

Bobur o‘g‘illarini hamjihatlikka chaqiradi: *“Tangrining marhamati bilan sizlar dushmanlarni yengasizlar, do‘stlarni shod qilasizlar. Ammo omad kelgan paytda sustkashlik qilmang, chunki podsholik sustlikni kechirmaydi.”* Bobur Humoyunga hayot va podsholik haqida falsafiy nasihatlar beradi. U fors tilida bayt keltiradi:

“Jahongirlik to‘xtamaydi,

Kim tirishsa, jahonniki o‘shanikidir.

Dunyoda har narsa to‘xtashi mumkin, ammo podsholik hech qachon to‘xtamaydi.”

Ya’ni, podshohlik doim harakatni, mehnatni talab qiladi.

Uka bilan muomala va adolat:

Bobur Humoyunga Komron bilan adolatli bo‘lishni, unga yaxshi munosabatda bo‘lishni buyuradi: *“Uka bilan totuv yashagin, kattalar ko‘tarimli bo‘lishi kerak. Har doim qoida shunday edi: olti ulush senga, besh ulush Komronga. Shu tartibni saqla.”*

Shaxsiy gina va tanbeh ham yo‘q emas. Bobur Humoyundan bir oz gina qiladi: *“Ikki-uch yildan beri senga biror odam yubormading. Mening yuborganim esa bir yildan keyin qaytdi. Bunday bo‘lish to‘g‘rimi?”*

Shuningdek, Humoyunning maktublarini tushunish qiyin, jumlar chalkash yozilganini aytadi:

“Xatingni o‘qish qiyin, so‘zlaring chalkash. Go‘yo muammo yozgandek. Qiyin so‘zlar o‘rniga sodda, ravshan so‘zlarni ishlatgin.”

Bobur o‘z davlati mustahkam bo‘lishi uchun farzandlariga aniq topshiriqlar beradi: Agar Komron tarafdagi ishlar tinch bo‘lsa, u Balxda o‘z odamlarini qoldirib, Boburning huzuriga kelsin. Kobulda ko‘p g‘alabalar bo‘lganligi uchun u joyni Bobur o‘z ixtiyorida qoldiradi. Humoyunga Sulton Vays bilan yaxshi munosabatda bo‘lishni, uning fikrini tinglashni buyuradi, chunki u “ish biladigan kishi”. Bobur keyin o‘z lashkarboshilari, sulton va amirlar bilan kengash o‘tkazadi: “Bu yil lashkar albatta biror tarafga yurish qilishi kerak, degan fikrga keldik.” Bobur lashkarboshilarni mukofotlashi ham asarda Bobur shaxsiyatini ochib beruvchi o‘ziga xoslikdir. Jumladan, aksariyga qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamarbardor xanjar, sarp (shohona kiyim), bayroq, nog‘ora, ot, fil, tuya, hachirlar va boshqa podshohona sovg‘alar beradi. Uning mullasi va tarbiyachilariga ham chakmon va sovg‘alar in’om qiladi.

Shuningdek, asarda Boburning matematik va ilmiy tafakkuri kuchli bo'lganini, u davlat boshqaruvida aniq o'lchov tizimlarini joriy qilganini ko'rishimiz mumkin: *“Har to'qqiz kuruh (masofa o'lchovi) joyda balandligi o'n ikki qarilik minora qurilsin va minoraning ustiga to'rtta yog'och belgi (chordara) o'rnatilsin.”* Bu minoralar yo'l belgilari bo'lib xizmat qilgan. Ular yordamida yo'lovchilar, choparlar (elchilar) yo'ldan adashmay o'tishgan. Shuningdek: Har o'n sakkiz kuruhda oltita yom oti (elchi oti) bog'lab qo'yiladi. Elchi va otboqarlarga maosh (ulufa), otlarga esa yem-xashak belgilanadi. Agar bu joy davlat yeriga yaqin bo'lsa, xarajat davlat tomonidan qoplanadi, agar biror bek viloyatida joylashgan bo'lsa, o'sha bek bu xarajatni qoplaydi. Keyin Bobur o'lchov birliklarini aniq belgilab beradi:

“To'rt ming qadam bir mil,

Bir kuruh shu masofaga teng,

Bir yarim qarini bir qadam deb, har qarida olti tutam,

Har tutamda to'rt barmoq, har barmoqda olti jav bo'ladi.”

Ya'ni: 1 mil = 4000 qadam

1 kuruh = 40 qarilik tanob (ya'ni 9 quloch)

100 tanob = 1 kuruh

“Boburnoma” asarida Bobur quyidagicha namoyon bo'ladi: Tartib-intizomni sevuvchi, ilmiy asosda o'lchov tizimi yaratgan hukmdor;

Davlat yo'llarini va pochtasini yo'lga qo'ygan tashkilotchilik qobiliyatiga ega shoh;

Diplomatik aloqalarga e'tiborli, elchilarni hurmat qiluvchi, bag'rikeng va saxovatli inson.

Yuqaridagi Boburnoma parchasi shuni ko'rsatadiki, Bobur nafaqat buyuk harbiy rahbar, balki o'z davrining ijtimoiy va ma'muriy hayotini chuqur tushungan davlat arbobi bo'lgan. Parchada harbiy yurishlar, qarorlar qabul qilish, hududiy boshqaruv, elchilar bilan

aloqalar va obodonchilik ishlari batafsil yoritilgan. Boburning lashkarni boshqarishi, hududlarni tartibga solishi va diplomatik aloqalarni muvofiqlashtirishdagi faoliyati o‘sha davr siyosiy-iqtisodiy va harbiy tizimini yanada tushunarli qiladi. Shuningdek, asar shaxsiy va davlat hayotini uyg‘unlashtirish, tartib-intizomni ta‘minlashga qaratilgan amaliy qadriyatlarni ham ochib beradi. Shu bilan birga, Boburnoma tarixiy manba sifatida o‘tmishdagi harbiy yurishlar, siyosiy qarorlar va hududiy obodonchilik masalalari bo‘yicha tadqiqotlar uchun muhim material vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boburnoma tabdil varianti, O‘qituvchi, 2008.
2. F. Ishoqov va b, Boburnoma uchun qisqacha izohli lug‘at, Andijon nashriyot—matbaa, 2008.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik, 3-t., Toshkent, “FAN”, 1979, 66 – 70 betlar.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiev. “Yulduzcha”, 1989.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. 3-tom.